



**2017 - 2018 – O'QUV YILIDA UMUMIY
O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
8-SINF O'QUVCHILARI UCHUN
GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL
SHUG'ULLANISHLARI UCHUN
IMTIHON JAVOBLARI**

O'quvchilarning mustaqil
shug'ullanishi uchun
8-sinf geografiya fanidan
qo'llanma

Farg'ona 2018

1-bilet

1. O'zbekiston Respublikasining tabiiy geografik o'rni, chegaralari (xaritadan ko'rsatib), maydoni va tabiati (iqlim, relyef tabiiy zonalari)ning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring. O'zbekiston iqlimi va tabiiy zonalari mamlakatimiz bilan bir xil kenglikda joylashgan O'rta dengiz bo'yi davlatlardan nima uchun farq qilishini tushuntiring.

Javob; O'zbekiston ob-havosi yilning qulay qismida ochiq va quruq bo'ladi. Serqiyosh va issiq kunlarning uzoq davom etishi mamlakatimiz qishloq xo'jaligi transport va maishiy hayotda mehnat va moliyaviy sarf-xarajatlarda ham qol keladi. O'zbekiston chegaralari Shimoliy-Sharqda Qirg'iziston, Shimoliy-G'arbda Qozoqiston, Janubiy-G'arbda Turkmaniston, Janubiy-Sharqda Tojikiston, Janubda Afg'oniston mamlakatlari bilan chegaradosh. Maydoni 448.9 ming km.kv. Mamuriy bolinishi 12 viloyat. O'zbekiston Ispaniya Italiya Gretsiya davlatlari bilan bir xil kenglikda joylashgan.

2. Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy tarmoqlari va eng yirik korxonalari haqida gapiring. Xaritadan viloyatning yoqilg'i sanoati va elektroenergetika markazlarini ko'rsatib (Muborak, Tolimarjon).

Javob; Qashqadaryoda 150 ga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qashqadaryo viloyati mamlakat hududining 6.4% egallaydi. Xo'jaligining asosiy tarmog'i g'allachilik, bog'dorchilik, paxtachilik, uzumchilik, go'sht suv chorvachilik Qo'ychilik pillachilik mevachilik. Respublikamizdagi asosiy neft va gaz konlari shu hudduda joylashgan. Qarshi va G'uzor shaharlarida neft va gaz konlari mavjud. Qarshi choli mintaqasida ixtisoslashgan paxtachilik, mevachilik, chorvachilik xojaliklari bor. Viloyat qishloq xojaligida bahorikor don xo'jaligi yaylov chorvachiligi, ayniqsa qorako'lchilik katta salmog'ga ega. Viloyat bug'doy yetishtirish bo'yicha qadimgi mavqeyini tilamoqda. Pillachilik, mevachilik va sabzovotchilik iqtisodli xojaliklarning qo'shimcha tarmoqlaridir. Paxta asosan Kitob-Shahrisabiz botig'i va Qarshi vohasida ekiladi.

3. Vagon derazasidan qarab kelayotgan yo'lovchi Qutub yulduzini dastlab poyezdning old tomonida ko'rdi, biroz vaqtdan keyin Qutub yulduzi poyezdning o'ng tomonidagi derazaning ro'parasida paydo bo'ldi. Poyezdning qaysi tomonga burilganligini aniqlang.

Javob; Qutub yulduzi g'arbda. Poyezd shimol tomon yuradi, chapga buriladi.

2-bilet

1. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, ularning xo'jalikdagi

ahamiyati haqida gapiring. Xaritadan Farg`ona vodiysi, Mirzacho,,1 tekisligi, Qizilqum cho`li, Ustyurt platosi, Surxondaryo vodiysini ko`rsating.

Javob;Qulay tabiiy sharoit ishlab chiqarish samaradorligining muhim tabiiy omilidir.Tabiiy sharoit ayniqsa qishloq xo`jaligi,foydali qazilmalar qazib chiqarish va transport harakatida yaqqol bilinadi.Qurg`oqchilik yillarda daryo suvlari kamayib ekinlarni suv bilan taminlash qiyin kechadi.O`zbekistonning yerusti tuzilishi betakrordir.Shunga kora tabiati ham boyliklari ham xilma-xildir.Eng muhim tabiiy boliklaridan biri-yer osrti boyliklardir.Ulardan sanoatda ham maishiy hayotda ham foydalaniladi.O`zbekiston katta yer osti boyliklariga ega.Ammo mamlakat iqtisodiyotning xomashyo va yoqilg`iga bo`lgan ehtiyojtoxtasir ortib bormoqda.Xozirda tabiiy boyliklarning yarimiga yaqinidan foydalanilmoqda.Ulardan tejab foydalanish kerak.

2. Andijon viloyati sanoati va qishloq xo`jaligi haqida gapiring. Xaritadan mashinasozlik korxonalari joylashgan shaharlar (Asaka, Andijon, Marhamat)ni ko`rsating.

Javob:Andijon viloyati mamlakatimizning eng sharqiy viloyati.Xo`jaligining asosiy tarmoqlari:paxtachilik,donchilik sabzavotchilik bog`dorchilik uzumchilik go`sht suv chorvachiligi ipakchilik.Qishloq xo`jaligi rivojlangan. O`zlashtiriladigan yerlar deyarli qolmagan.Paxtaning yalpi xosili faqat hosildorlikni ko`tarish hisobiga oshirimoqda.Sabzavot,kartoshka va poliz ekinlar asosan shaharlar atrofida yetishtiriladi.Bog`dorchilik salmoqli o`rin tutadi. Iqtisoslashgan bog`dorchilik xo`jaliklari bor.Chorvachilikda qo`y va echkilarning salmog`i katta.Viloyatda sanoat ham rivojlangan bo`lib 160dan ortiq sanoat korxonalari mavjud.Korxonalar orasida <ASAKA>avtomobil zavodi,Andijon avtomobil orindiqdari zavodi,<semurg`> trikotaj aksiyadorlik birlashmasi yirik korxonalar hisoblanadi.Kampiravot suv omborida quvvati 100 ming kilovotli GES qurilgan .

3. Samolyot Toshkentdan (IV-soat mintaqasi) Parijga (I-soat mintaqasi) qarab Toshkent vaqti bilan soat 18:00 da uchib ketdi. Samolyot manziliga 3 soatda yetib borsa, qo`nganida Parijda soat qancha bo`ladi?

Javob:Toshkent-V Parij-I orasi 4 soat. $18:00-04:00=14:00$.

$14:00+3=17:00$ Javob:17:00 bo`ladi

3-bilet

1. O`zbekiston Respublikasi aholisining zichligi, joylashuvi va milliy tarkibi haqida gapiring. O`zbekistondagi 5ta eng katta shaharlar (Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Nukus)ni xaritadan ko`rsating.

Javob:Aholi tarkibiga jins va yosh jihatdan yondoshish katta ahamiyatga ega.Chunki aholini va inson omilini takror ishlab chiqarish xuddi anashu jihatlarga bog`liq.2-Jahon urushi asorati tufayli 1945-1960-yillarda O`zbekiston

aholi tarkibida erkaklar soni ayollar sonidan ancha kam edi. Yillar o'tishi bilan bu tasovut qisqara bordi. 1959-yilga kelib ayollar 52%ni erkaklar 48%ni tashkil etdi. Hozir ular soni o'zaro teng. O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda 41-o'rinda turadi. Aholi zichligi 1 kv.km ga 67 kishini tashkil etadi. Hozirda mamlakatimizda aholi soni 30 million kishidan ortiq. O'zbekiston aholi soni bo'yicha jahondagi 230 ga yaqin davlatlar ichida 38-o'rinda turadi. Aholi o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqchiligi hisobiga doimo ko'payib turadi. Bunday ko'payish aholining tabiiy ko'payishi deyiladi. Shuningdek, aholi migratsiya hisobiga ham ko'payadi. Buni aholining mexanik ko'payishi deyiladi. Mamlakatimizda mig-ratsiya minus saldogaga ega. Aholi migratsiyasi -- ikki xil: ichki migratsiya (aholining mamlakat ichkarisida, uning rayonlari o'rtasida yoki qishloq joylardan shaharlarga ko'chib yurishi) va tashqi migratsiya (mamlakatdan ko'chib ketish -emigratsiya va mamlakatga ko'chib kelish -immigratsiya). Bu viloyat mamlakatimizning eng kenja viloyati.

2. Navoiy viloyatining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisining joylashuvi haqida gapiring. Viloyatda qanday ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan?

U Buxoro va Samarqand viloyatlari hududidan tashkil topdi. Navoiy viloyati mamlakatimiz viloyatlari ichida maydonining kattaligi bo'yicha birinchi o'rinda tursada, aholisining soni bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turadi. Viloyatning o'simlik (yaylov) boyligi qorako'lchilikda katta ahamiyatga ega. Aholisi ko'p millatli. Sanoatning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi shahar aholisining tez ko'payishiga olib kelmoqda. Sanoat tuman markazlaridagi paxta tozalash zavodlaridan tashqari elektr energiya ishlab chiqarish, rangli metallurgiya, kimyo, qurilish xomashyosi ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoatidan iborat. Sanoatning rivojlanishi suv boyliklariga bog'liq. Taraqqiy etayotgan sanoat tarmoqlari, jumladan kimyo sanoati va boshqalar suvni ko'p talab qiladi. Viloyat kimyo sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanib, tez rivojlanmoqda. Kimyo sanoatining markazi Navoiy shahridagi kimyo kombinatidir. Mamlakatimizda tayyorlanayotgan sement mahsulotining asosiy qismi Navoiy sement zavodida ishlab chiqarilmoqda. sement xomashyolarini sobiq Ittifoq respublikalaridan katta-katta xarajatlar hisobiga keltirardi. Xomashyoning qimmatligi sement ishlab chiqarishni ko'paytirish va sifatini oshirishga to'sqinlik qilardi. Geologlarning izlanishlari natijasida Malikcho'l sarhadlarida, shundoqqina zavodning yonida tuf koni topildi. Tuf eng a'lo shlakdan ham, noyob aralashma-klinkerdan ham qolishmaydigan sement xomashyosidir. Kon zaxirasi katta bo'lib, yiliga 2-3 mln tonna tuf qazib olinganda ham 45-50yilga yetishi aniqlandi. Endilikda kon va zavod oralig'ida temiryo'l yotqizish ishlari olib borilmoqda.

3. Dengiz tubiga exolot jo., natgan ovoz to., lqini 12 sekunda borib kelgan

bo`lsa, uning chuqurligi necha metr ga teng bo`ladi?

Javob: Suvda tovush tezligi 1500m/s; 12sekund ;
 $1500 \cdot 12 = 18000$; $18000 : 2 = 9000$ Javob: 9000 m dengiz chuqurligi

4-bilet

1. O`zbekiston elektroenergetikasi rivojlanishi va joylanishi haqida gapirib bering. Xaritadan Shirin, Angren, Navoiy, Taxiatosh shaharlari va Chorvoq suv omborini ko`rsating.

Javob; Milliy iqtisodni rivojlantirish uchun elektr energiyani boshqa tarmoqlarga qaraganda tezroq o`stirish lozim. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 90% IES lar bermoqda. O`zbekistonda Toshkent Yangi Angren Sirdaryo Navoiy Talimarjon kabi yirik IES lar mavjud. IES ancha tez va arzon quriladi. Elektr energiyaning tannarxi avvalo elektr stansiyalarda ishlatiladigan yoqilg`ini qazib olish va tashib keltirish xarajatlariga bog`liq. Shuning uchun elektr energiyasi qurish uchun joy tanlanayotganda yoqilg`ini tashib kelishga va elektr energiyani uzatib berishga ketadigan xarajatlar qiyoslab ko`riladi. Respublikamizda elektr stantsiyalarning IES IEM GES AES turlari mavjud.

2. Xaritadan Qoraqalpog`istonning chegaralari va poytaxtini ko`rsating.

Qoraqalpog`iston Respublikasining sanoati va qishloq xo`jaligi haqida gapirib. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ekologik sharoit qanday ta`sir ko`rsatadi?

Javob: Qoraqalpog`iston muxtor viloyati sifatida 1925-yilda tashkil topgan. 1932-yilda muxtor respublikaga aylantirilgan. 1936-yilda O`zbekiston tarkibiga kirgan. Qoraqalpog`iston mamlakatimizning shimoliy g`arbida tashkil topgan. Poytaxti Nukus shahri. xo`jaligi asosan agrosanoat majmuidan iborat. Bu erda obikor dehqonchilik mehnat va mablag`ni ko`proq talab qiladi.

Qoraqalpog`iston ekin maydonining katta qismida paxta va g`alla yetishtiriladi. Paxta Mo`ynoq tumanidan boshqa barcha tumanda yetishtiriladi.

G`alla ekinlaridan sholi oqjoxori va makka jo`xori ko`p ekiladi.

O`zbekistondagi sholi maydoning 33 % dan ko`prog`i Qoraqalpog`istonda.

3. O`zbekistonda aholining yillik tabiiy o`sish darajasi 515 ming kishini tashkil etib, tug`ilganlar soni 687 ming kishini tashkil etsa, o`lganlar sonini aniqlang.

Javob; $687 - 515 = 172$ Javob: o`lganlar soni 172 ming kishi

5-bilet

1. O`zbekistonning yoqilg`i sanoati haqida gapirib. Xaritadan neft hamda gazni qayta ishlash zavodlari joylashgan shahar va shaharchalar (Qorovulbozor, Farg`ona, Oltiariq, Muborak)ni ko`rsating.

Javob; Yoqilg`i sanoatining eng yosh tarmog`i bo`lgan gaz sanoati keying yillarda jadal rivojlanmoqda. Gaz-yoqilg`ining juda arzon turi. Gazdan sanoatda

ham maishiy hayotda ham foydalaniladi. Mamlakatimizda ko`mir va neftga nisbatan tabiiy gaz ancha ko`pligi aniqlangan. Gaz zaxirasi 2 trillion kub metr 1950-yillarda jami 9 million kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilgan bo`lsa endilikda gaz 60 mln kub metrdan ortiq. Fargona, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryoda gaz qazib olinadi. Neftni qayta ishlash natijasida undanturli xil yoqilg`I yani kimyoviy mahsulot olinadi. Uni qazib olish gazdan 4 baravar arzonga tushadi. 1992-yilda Namanganda Mingbuloq neft koni ochildi. Buxoroda yiliga 5tonna neftni qayta ishlash kombinati qurildi.

2. *O`zbekiston Respublikasi qaysi iqtisodiy rayonlariga bo`linadi? Ularning hududiy tarkibi haqida gapiring va ularni xaritadan ko`rsating.*

Javob; O`zbekiston iqtisodiy geografik rayonlari: Toshkent, Mirzacho`l, Farg`ona Samarqand, Buxoro-Navoiy, Qashqadaryo, Surhondaryo, Quyi Amudaryo.

Hududiy mehnat taqsimoti quyidagi hollardagina sodir bo`ladi:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulot mahalliy ehtiyojdan ancha ko`p bo`lishi ;
- Uni ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlaridagina arzonga tushishi ;
- Ishlab chiqarishning xomshyo zaxirasi ko`p yillarga yetarli bo`lishi ;
- Mahsulot ayriboshlanganda transport xarajati arzon bo`lish.

3. *Samolyot Toshkentdan soat 15:00 da uchib ketib, Singapurga u yerdagi vaqt bilan soat 22:00 da ko`ndi. Toshkent IV-soat mintaqasi, Singapur esa VIII-soat mintaqasida joylashgan bo`lsa, samolyot ikki shahar orasidagi parvozni qancha vaqtda amalga oshirgan?*

Javob: Toshkent-IV ; Singapur-VIII; 4 soat mintaqasiga farq qiladi.

$15:00+04:00=19:00$; $22:00-19:00=3$ soatda parvozni amalga oshirgan.

6-bilet

1. *Quyidagi geografik atamalarning mazmunini ayting: migratsiya, urbanizatsiya, aholining tabiiy o`sishi .*

Javob: *Migratsiya*-“ko`chish” degan ma`noni anglatadi. Migratsiya ichki va tashqi migratsiyaga bo`linadi. Ichki migratsiya-Aholining mamlakat ichkarisida uning rayonlari o`rtasida yoki qishloq joylardan shaharlarga ko`chib yurish. Tashqi migratsiya-Mamlakatdan ko`chib ketish (emigratsiya) yoki mamlakatga ko`chib kelish (immigratsiya) . *Urbanizatsiya*-ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish va shahar aholisi salmog`ining ortishi natijasida mamlakat hayotida shahar rolining kuchayishi. *Aholining tabiiy o`sishi*-aholi olganlar soniga nisbatan tug`ilganlar sonining ortiqqligi hisobiga doimo ko`payib boradi. Bunday ko`payish aholining tabiiy ko`payishi deyiladi .

2. *Farg`ona viloyati sanoatining asosiy tarmoqlari qaysilar? Xaritada Farg`ona, Qo`qon, Marg`ilon, Quvasoy shaharlari, Oltiariq shaharchasini ko`rsating Ularda sanoatning qanday tarmoqlari rivojlanganini ayting.*

Javob; Farg`ona viloyati sanoati ko`p tarmoqli bo`lib, unda og`ir sanoatning

salmog'i ancha katta. Neftni qayta ishlash, kimyo va energetika sanoati iqtisodiy geografik rayonda emas balki respublikada ham ajralib turadi. Neftni qayta ishlovchi 2 ta zavod bo'lib biri Farg'onada, 2- Oltiariqda joylashgan. Mashinasozlik, metallsozlik va binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari ham muhim ahamiyatga ega. Sanoat korxonalari Farg'ona-Marg'ilon sanoat rayoni va Qo'qon Quvasoy sanoat tugunlarida to'plangan. Farg'onada – mashinasozlik, elektroenergiya, neft, gaz, yengil sanoat va boshqa turlar rivojlangan.

3. Samarqand iqtisodiy rayonida respublika aholisining 12% yashaydi. Bu rayonga respublikada yig'iladigan sabzavotlarning 16,5% i to'g'ri keladi. Ushbu mahsulot rayonning ixtisoslashgan tarmog'i bo'la oladimi? Javobingizni asoslab bering.

Javob: $K=M:A$; M-rayon mahsulotining mazkur tarmoq boyicha mamlakatdagi salmog'i; A-mamlakat aholisi sonidan rayon aholisining salmog'I; K-Iqtisoslashuv koeffitsiyenti;

$K=16.5:12=1.375$ 1 dan katta demak iqtisoslashgan tarmoq.

7-bilet

1. O'zbekistonning rekreatsiya va turizm resurslari haqida gapiring. Mamlakatimizda qanday sanatoriya va dam olish maskanlari mavjud? Dam olish maskanlari joylashgan Chortoq shahri, Xojikent, Chimyon va Zomin shaharchalarini xaritadan ko'rsating.

Javob; Rekreatsiya (sayohat, hordiq chiqarish sanatoriy) xizmat mehnat qilish jarayonida sarflangan kuch energiyani qayta tiklashda muhim omil hisoblanadi. Rekreatsiyadan foydalanish uchun zarur omillar: 1) mablag'; 2) Rekreatsiya resurslari; 3) rekreatsiya xo'jaligi. Rekreatsiya 2 xil boladi. Tabiiy va madaniy tarixiy rekreatsiya. Tabiiy rekreatsiyaga g'orlar, shaharlar kiradi. Tabiat qo'nyidagi dam olish maskanlari ham bunga misol bo'la oladi. Toshkent viloyatidagi „Chimyon“, Farg'onadagi „shohimardon“, „Chodak“, „Chortoq“, „Bog'I shamol“ kabi yurtimizda ko'plab dam olish maskanlari mavjud. Rekreatsiya xo'jaligi tarkibiga mexmonxonalar, dam olish uylari va bozorlar, turistik transport va boshqalar kiradi.

2. Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarining sanoatiga qiyosiy tavsif bering.

Javob: Navoiy viloyati yurtimizdagi eng kenja viloyat. U Buxoro va Samarqand viloyatlari hududida tashkil topgan. Navoiy viloyati viloyatlar ichida maydoni jihatdan 1-o'rinni egallasa aholisi soni bo'yicha oxirgi O'rinda Navoiy viloyati cho'l mintaqasida joylashganligi uchun chorvachilik rivojlangan. Asosan qorako'chilik, qoychilik rivojlangan. Navoiyda rivojlangan sanoatlardan biri bu Kimyo sanoati. Kimyo sanoatining markazi Navoiy shahri. Sement mahsulotlari ham navoiyda yetishtiriladi. Qashqadaryo-mamlakat neft-gaz

sanoatining tayanchi hisoblanadi. Qarshi cholineg janubiy g'arbiy qismida vodorod sulfiddan gaz ajralib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan. Qashqadaryoda 150 ga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning asosiysi neft va gaz, paxta tozalash, binokorlik, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga iqtisoslashgan.

3. Toshkentda (IV-soat mintaqasi) tush payti soat 12:00 bo'lganda, Parij (I-soat mintaqasi) va Tokio (IX-soat mintaqasi) shaharlarida necha soat bo'ladi?

Javob: Toshkent - 12:00; Parij-9:00 ;Tokio-17:00

8 – bilet

1. Rangli metallar qanday guruhlarga bo'linadi? Qiyin eruvchan va qimmatbaho metallar guruhlari qaysi metallar kiradi? O'zbekistonda asosan qaysi rangli metallar qazib olinadi? O'zbekiston rangli metallurgiyasining yirik korxonalari joylashgan Olmaliq, Zarafshon va Uchquduq shaharlarini xaritadan ko'rsating.

Javob:

Rangli metallar bir qancha guruhlarga bo'linadi

Asosiy guruhlalar			Boshqa guruhlalar	
Og'ir metallar	Yengil metallar	Qimmatbaho metallar	Qiyin eruvchi metallar	Nodir metallar
Mis, qalay, qorg'oshin, nikel, rux	Aluminiy, magniy, titan	Oltin, kumush, platina	Volfram, molibden	Uran, germaniy va boshqalar

Angren-Olmaliq kon sanoati rayoni mamlakatimiz rangli metallurgiya sanoatida alohida ahamiyatga ega. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin, kumush kabilar birga uchraydi. Bu yerda mis eritish zavodi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati ishlab turibdi. Kombinat Qalmoqqirkon, Qo'rg'oshinkon konlari, qo'rg'oshin-rux boyitish fabrikasi, elektr stansiyasi va bir qancha yordamchi korxonalardan iborat. Konchilarning obod shahri -Olmaliq kon o'zlashtirilishi jarayonida barpo bo'lgan. Rangli metallurgiyaning asosiy mahsuloti -volfram va molibden ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Chirchiq vodiysidagi qiyin eriydigan qattiq qotishmalar zavodi mamlakatdagi nihoyatda muhim korxonalardan hisoblanadi. Bu korxonadan elektrotexnika, mashinasozlik, asbobsozlik va boshqa sanoat tarmoqlarida keng foydalaniladi. Ohangaron ko'mir havzasida aluminiy xomashyosi-kaolin gilining ulkan zaxirasi mavjud. O'rta Chirchiq plavik

shpat kombinatida esa aluminiyni elektroliz usulida olishda ishlatiladigan plavik shpat tayyorlanadi.

2. *Navoiy va Xorazm viloyatlariga qiyosiy geografik tavsif bering. Ushbu hududlarning sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi nimasi bilan farq qiladi?*

Javob: *Navoiy* viloyati yurtimizdagi eng kenja viloyat. U Buxoro va Samarqand viloyatlari hududida tashkil topgan. *Navoiy* viloyati viloyatlar ichida maydoni jihatdan 1-o'rinni egallasa, aholisi soni bo'yicha oxirgi o'rinda. *Navoiy* viloyati cho'l mintaqasida joylashganligi uchun chorvachilik rivojlangan. Asosan qorako'lchilik, qoychilik rivojlangan. *Navoiy*da rivojlangan sanoatlardan biri bu Kimyo sanoati. Kimyo sanoatining markazi *Navoiy* shahri. Sement mahsulotlari ham *navoiy*da yetishtiriladi. *Xorazm* viloyati esa kichik viloyatlardan biri soni bo'yicha ham viloyatlar orasida oxirgi o'rinlarda. Xo'jaligi asosan agrosanoat majmuidan iborat. Xiva yangi ariq, Shovot tumanlarida paxta yetishtirilsa, Gurlanda sholi poyalar katta hududni egallaydi. Paxtadan tashqari obikor yerlarda makkajo'xori, kartoshka va poliz ekinlari ekiladi. Qovunchilik ham rivojlangan. Chorvachilikda Qorako'l qo'ylarining salmog'i katta.

3. *Havo harorati 0°C ga teng, 1m³ havo tarkibida 3 gramm suv bug'i mavjud bo'lsa, havoning nisbiy namligi qanchaga teng bo'ladi?*

Javob: Havo harorati 0°C bo'lganda 5 gramm suv bug'i bo'ladi.

$5\text{g}/\text{m}^3 - 100\%$ $x = (3 \cdot 100) : 5 = 60\%$ Nisbiy namlik 60% ekan.
 $3\text{g}/\text{m}^3 - x\%$

9-bilet

1. *O'zbekiston Respublikasining avtomobilsozlik sanoati rivojlanishi haqida gapiring. Xaritadan yengil va yuk avtomobillar, avtobuslar ishlab chiqaradigan korxonalar joylashgan shaharlarni ko'rsating.*

Javob: 1992 yilda O'zbekiston Janubiy koreaning „DAEWOO“ kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon viloyatining Asaka shahrida Yengil avtomobil ishlab chiqaradigan „Uz-Daewoo Auto“ avtomobil zavodi qurila boshlandi. 1996-yilda Damas, Tiko, Nexia rusumli avtomobillar chiqara boshladi. Dastlabki yili avtomobil qismlarining 20% o'zbekistonda tayorlangan bo'lsa, 5 yil o'tgach bu ko'rsatkich 60% ga yaqinlashadi. Endilikda bu ko'rsatkich 85% ni tashkil qilib, avtomobilsozlik korxonalarining mamlakat doirasidagi kooperatsiyasi yuksak darajada ko'tariladi. O'zbekiston jahona avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatdir. Hozirda „GM-O'zbekiston“ zavodi Damas, Nexia, Matiz, Lasetti, Epika, Captiva, Malibu, Kobalt singati mashinalar ishlab chiqarmoqda.

2. *Toshkent viloyatida sanoatining qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan va bunga ta'sir etuvchi omillar qanday? Rangli va qora metallurgiya korxonalari joylashgan shaharlari (Bekobod, Olmaliq, Chirchiq) ni xaritadan ko'rsating.*

Javob: Toshkent iqtisodiy geografik rayoni mamuriy jihatdan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat. Bu rayonning ikki tamoni Farg'ona va Mirzacho'l bilan, qolgan ikki tomoni esa Qozog'iston va Tojikiston davrlari bilan chegaradosh. Toshkent iqtisodiy geografik rayoni konchilik sanoati rivojlangan. Toshkent iqtisodiy geografik rayoni ko'p tarmoqli bo'lib, unda o'zbekiston sanoat tarmog'ining deyarli hammasi mavjud. Yengil va oziq ovqat sanoati ham rivojlangan. Yoqilg'i-energetika-kimyoy majmui ancha qudratli. Rayon 100 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo aloqalarini olib boradi. Xorijga: paxta, ipak, paxtachilik uchun zarur mashina, to'qimachilik mashinalari, qorako'l terilari, rangli metallar konsentratlari, ko'tarma kranlar, ip va ipak gazlamalari, neft mahsulotlari, tabiiy gaz hamda meva jo'natiladi. Qora metallurgiya korxonalari joylashgan shaharlar: Bekobod. Rangli metallurgiya korxonalari joylashgan shaharlar: Olmaliq.

3. O'zbekiston Respublikasi maydoni 448,9 ming km², aholisi 1.01.2018 yil holati bo'yicha 32,6 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, aholi zichligini toping.

Javob: $32600000:448,9 \approx 73$ Javob: 1 kv.km ga 73 kishi

10-Bilet

1. Oziq-ovqat sanoati, uning tarmoqlari haqida gapiring. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashtirishda qanday omillar hisobga olinadi?

Javob: Bu sanoat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash negizida shakillangan. Oziq ovqat sanoati korxonalari yuksak mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish tarmog'iga aylangan. O'tmishda faqat xomashyoga yani qishloq xojaligiga bog'liq bo'lgan bu sanoat hozirda mashinasozlik, energetika va kimyoy tarmoqlari bilan chambarchas bog'langan. Unda yorma sanoat korxonalarida bug'doy qayta ishlanadi. Bug'doyni tashish unni tashishdan ancha qulay. O'zbekiston o'simlik moyi ishlab chiqaruvchi yirik davlatga kiradi. O'simlik moyi asosan paxta chigitidan olinadi. Oziq-ovqat sanoatining yana bir muhim tarmog'i go'sht korxonalaridir. Xozirgi transport tezligi va maxsus muzlatgichlar go'shtning sifatini buzmay uzoq masofaga tashish imkonini beradi. Shuning uchun go'sht mahsuloti ko'p iste'mol qilinadi. Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona shaharlarida yirik go'sht kombinatlari ishlaymoqda.

2. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayonining sanoati va qishloq xo'jaligi haqida gapiring. Iqtisodiy rayonining metallurgiya va yoqilg'i sanoati markazlari (Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Qorovulbozor, Gazli)ni xaritada ko'rsating.

Javob: Bu iqtisodiy geografik rayoni mamuriy jihatdan Buxoro va Navoiy viloyatidan iborat. Sanoati ko'p tarmoqlidir. Bu yerda energetika rangli metallurgiya neftni qayta ishlash, Gaz, kimyoy, yengil va oziq-ovqat, neft sanoati rivojlangan. Qorovulbozor shahrida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan

korxonada ishga tushdi. Rayonda iqtisodiyotning yangi iqtisodiy sohasini vujudga keltirmoqda. Elektr energiya miqdoriga ko'ra Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayonidan keyin 3-o'rinda turadi. Elektr quvvati asosan IESdan olinmoqda. Yengil sanoatning 50 ga yaqin korxonasi bolib yalpi mahsulotning 40% ni ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligida chorvachilik bilan shug'ullaniladi. Qorako'l qo'ylari boqiladi.

3. Yanvarning o'rtacha harorati -8°C , iyunning o'rtacha harorati $+28^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, havo haroratining yillik amplitudasini hisoblang.

Javob: $-8+28=36$

Yillik amplitude - 36°C

11-bilet

1. O'zbekiston Respublikasi eksport va importining tovar tarkibi haqida gapiring. Xaritadan O'zbekiston bilan tashqi savdoda keng hamkorlik olib borayotgan davlatlar (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya)ni ko'rsating.

Javob: O'zbekiston chetga mashinalar, kimyo mahsulotlari, qora va rangli metal, elektr energiya, gaz, paxta tolasi, oziq-ovqat mollari, pilla, qorako'l singari mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakat hisoblanadi. O'z navbatida O'zbekiston o'zida yetishmagan oziq ovqat va sanoat mollarini import qiladi. O'zbekiston xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishgan. Hozirgi kunda 140 dan ortiq mamlakat bilan savdo aloqalari olib boriladi. Ayniqsa dunyoda yetakchi bo'lgan Germaniya, AQSh, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Xitoy, Koreya Respublikasi bilan hamkorlik rivojlanmoqda. Tovarlarini tashqi bozorga chiqarish-Eksport. Chet tovarlarini, mollarni olib kirish-Import.

2. Sirdaryo viloyatining geografik o'rni, tabiiy resurslari haqida gapiring. Viloyatning sanoati va qishloq xo'jaligida qaysi tarmoqlar yetakchilik qiladi? Xaritadan Sirdaryo IES joylashgan shaharni ko'rsating.

Javob: Xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, polizchilik, donchilik, gosht-suv chorvachiligi. Viloyat xo'jalik negizini: qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Ekin maydonlarining kattaligi jihatdan viloyat respublikada oldingi o'rinda turadi. Ekin maydonlarining deyarli yarmiga paxta ekiladi. Undan keying o'rinlarda don o'rniga meva turadi. Guliston va Xovos tumanlarida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Bog' dorchilik va hunarmanchilik ham rivojlangan. IES joylashgan shahar-Shirin shahri.

3. Tush paytida uylarning soyasi tushib turmaydigan ko'cha qaysi tomon (lar) ga yo'nalganligini aniqlang. Javob: Shimol va Janubga yo'nalgan.

12-Bilet

1. O'zbekistonda qora va rangli metallurgiyaning rivojlanishi haqida gapiring. Ushbu tarmoqlarning yirik markazlari (Bekobod, Olmaliq, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Chirchiq)ni xaritadan ko'rsating.

Javob; Metallurgiya majmuasi 2 tarmoqga bolinadi. 1-Qora metallurgiya 2-Rangli metallurgiya. Qora Metallurgiya; temir rudasi qazib chiqarish, cho`yan, po`lat eritishdan iborat. Fan va texnika taraqqiyoti metal eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metal olishning yangi senurum usullarini joriy qilishga olib kelmoqda, bu po`lat sifatini oshirishni va prokatning xilma xil turlarini olishni taminlamoqda. Qora metallurgiyada ishlab chiqarish uzliksiz markazlasha boradi. Bunda suv, elektr energiya tabiiy gaz bilan taminlash va tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlari ham etiborga olinadi. Qora metallurgiya korxonasi-Bekobod. Rangli metallar bir qancha guruhlariga bo`linadi. Bu bo`linish asosida rangli metallurgiya – og`ir metallar metallurgiyasi, yengil metallar metallurgiyasi va boshqalarga bo`linadi. Angren-Olmaliq kon rayoni mamlakatimiz rangli metallurgiya sanoatida alohida ahamiyatga ega. Volfram va molibden ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Rangli metallar qimmatli hususiyatlarga ega. Ular zanglashka chidamli issiqqa bardoshli bo`ladi. Qimmatbaho metallar-Oltin kumush platina. Mamlakatimizda oltin, mis, qo`rg`oshin, rux, volfram va boshqa rangli metallar rudalari zaxirasi ko`p.

2. *Iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvi deganda nimani tushunish lozim, va bu jarayonga qanday omillar ta`sir ko`rsatadi? Misollarni keltiring.*

Javob: iqtisodiy geografik rayon: geografik o`rni o`ziga xos; mamlakat miqyosida ixtisoslashgan; majmualari xo`jalik shakillangan; tabiiy boyliklar hamda ishchi kuchi bilan taminlanishda boshqa rayonlardan farqlanuvchi hududlar. Iqtisodiyotning yuksalishi bilan tarmoqlararo majmualar mukammalasha boradi. Natijada hududiy aloqalar ham takomillashib iqtisodiy geografik rayonlar qayta tuzilishi mumkin. Mamlakatimiz hududi shartli ravishda 8ta iqtisodiy geografik rayonga bo`lish mumkin. Bular: Toshkent iqtisodiy geografik rayoni; Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoni; Farg`ona iqtisodiy geografik rayoni; Samarqand iqtisodiy geografik rayoni; Buxoro-Navoiy iqtisodiy geografik rayoni; Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni; Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni; Quyil Amudaryo iqtisodiy geografik rayoni.

3. *Buxoro va Qorako`l shaharlari orasidagi 25 kmli masofa birinchi xaritada 2,5 sm ga, huddi shu masofa ikkinchi xaritada 5 sm ga teng bo`lsa, xaritalarning masshtabini aniqlang. Aniqlangan masshtablarning qaysi biri yirik?*

Javob: $1\text{km}=1000\text{m}$; $25\text{km}=25000\text{m}$;
 Birinchi xaritada 1sm .da $25000:2,5=10000\text{m}$;
 Ikkinchi xaritada 1sm .da $25000:5=5000\text{m}$
 Ikkinchi xarita mashtabi yirik.

13 – bilet

1. *“Tabiiy resurslar” tushunchasini izohlab bering. Ular qaysi guruh va turlarga*

Javob: Har 100m.ga ko`tarilganda bosim 10mm.ga pasayadi.

$$740-440=300$$

$$300*10=3000$$

$$\text{Javob: } 3000\text{m}=3\text{km}$$

14 – bilet

1. O'zbekiston Respublikasida dehqonchilikning qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan? O'zbekistonda sholi, uzum, poliz ekinlarini yetishtirishga qaysi hududlar ko'proq ixtisoslashgan? Ushbu hududlarni xaritadan ko'rsating.

Javob; Dehqonchilik dalachilik bog`dorchilik va uzumchilikdan iborat. Ekin turlari bo'yicha don ekinlari texnika ekinlari sabzavot, kartoshka va poliz ekilari xo'jaliklariga bo'linadi. O'zbekistonda sug'orib dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlar mamlakat yer boyligining 9.2 %ini tashkil qiladi. Qishloq xojaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98.5% I shu erlarda etishtiriladi. Dehqonchilikda paxtachilik katta o'rin egallaydi.

O'zbekistonda asosiy ekin bo'lgan paxta qishloq xo'jaligining deyarli barcha sohalari va sanoatning ko'pgina tarmoqlari yuksalishning bosh omilidir. Paxta barcha texnik ekin maydonlarining 97 % ni egallaydi. Ayni paytda donli ekinlar ekish rivojlantirishga katta etibor berilmoqda. Mustaqillika qadar jami ekin maydonining 20 % ga donli ekinlar ekilgan bo'lsa endi bu korsatkich 44 % dan oshdi.

2. Jizzax viloyatining tabiiy resurslari, sanoati va qishloq xo'jaligi haqida gapiring. Xaritadan Jizzax, G'allaorol, Do'stlik shaharlari va Zomin shaharchasini ko'rsating.

Javob; Viloyat hududida qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan 1.2 mln gektar yer bor. Buning 1/3 qismida dehqonchilikda foydalanilmoqda. Viloyatda paxta bilan birga g'allachilik ham katta ahamiyatga ega. G'alla maydonining kattaligi jihatdan Jizzax viloyati mamlakatimizda oldingi o'rinda. Mustaqillikdan oldin 210 ming tonna paxta, 80 ming tonna g'alla yetishtirilgan. Endilikda bu korsatkich 255 ming tonna paxta, 420 ming tonna g'alla. Viloyatda chorvachilik g'allakor tumanlarda parandachilik keng rivojlangan Jizzaxda qorabayir ot yetishtiriladigan maxsus ot zavod bor. Tabiiy resurslari. Uchquloch konida polimetall rudasi Marjonbuloq konida Oltin, Oqtosh va uzun g'orlaridan marmar qazib olinadi. Shimoliy Nurota tog'larida Volfram-molibden konlari ishlamoqda.

3. Koordinatalari 20o sh.k., 40osh.u. bo'lgan nuqta xaritada qaysi raqam bilan belgilangan?



Javob: 4 raqam bilan belgilanadi

15 – BILET

1. Quyidagi geografik atamalarning ma'nosini tushuntiring: rayon ixtisoslashuvi, melioratsiya, rekreatsiya.

Rayon ixtisoslashuvi-uning biror mahsulotining bu tarmoq bo'yicha mamlakatdagi salmog'ini, rayon aholisining mamlakat aholisidagi salmog'iga nisbatining birdan yuqori ko'rsatkichi bilan aniqlanuvchi tarmog'idir.

Melioratsiya-yerning holatini yaxshilash uchun tekislash, sug'orish, sho'rni yuvish, nihol o'tkazish, tuproq hosildorligini oshirish kabi tadbirlar yig'indisi. Rekreatsiya-sayohat, hordiq chiqarish, sanatoriya-kurort xizmati mehnat qilish jarayonida sarflangan kuch va energiyani tiklashga xizmat qiladi.

2. Namangan viloyatiga umumiy geografik tavsif bering, qo'shni Andijon va Farg'ona viloyatlaridan farqli jihatlarini izohlang. Xaritadan Namangan, Chust, Kosonsoy, Chortoq shaharlarini ko'rsating.

Javob: Xo'jaligining asoiy tarmoqlari: donchilik sabzavotchilik paxtachilik bog'dorchilik va uzumchilik. Namangan viloyatida ham obikor dehqonchilik ustun turadi. Viloyat hududida ko'plab sug'orish inshootlari qurilgan.

Irrigatsiyani rivojlanishi obikor yerlarni kengaytirish va melioratsiya holatini yaxshilash imkonini beradi. Ekin maydonlarining asosiy qismiga paxta va g'alla ekiladi. Pop va chust tumanlari yaylovlarida qo'y va echki ko'p boqiladi. Qoramol hamma dehqonchilik tumanlarda boqiladi. Pillachilik paxtachilik bilan rivojlanmoqda.

3. Mamlakatga ko'chib kelganlar soni 130 ming kishi, ketganlar soni esa 155 ming kishiga teng. Migratsiya saldosi hisoblang.

Javob: Ko'chib kelganlar-130 ming kishi; Ko'chib ketganlar-155 ming kishi
 $155-130=25$ ming kishi. Mamlakat aholisi 25ming kishiga kamaydi. Migratsiya saldosi manfiy.

1. *Quyidagi geografik atamalarning mazmunini tushuntiring: iqtisodiy (iqtisodiy geografik) rayon, kooperatsiya, aholining mexanik o'sishi.*

Javob: *Iqtisodiy rayon*-mehnatning geografik taqsimlanishi asosida o'z ixtisoslashuviga ko'ra bir biridan farq qilishi.

Melioratsiya-yerning holatini yaxshilash uchun tekislash, sug'orish, sho'rni yuvish, nihol o'tkazish, tuproq hosildorligini oshirish kabi tadbirlar yig'indisi.

Kooperativlashuv- (hamkorlik) tayyor mahsulot tayyorlashda bir qancha korxonalar qatnashadigan ishlab chiqarish shakli.

2. *Mirzacho'l iqtisodiy-geografik rayoniga umumiy tavsif bering. Xaritadan Jizzax, Guliston, Shirin, Do'stlik, G'allaorol shaharlarini ko'rsating.*

Javob: Mirzacho'l iqtisodiy rayoni sirdaryo bilan Jizzax viloyatlaridan tashkil topgan. Rayon hududi tarqqiy etgan Toshkent va Samarqand iqtisodiy geografik rayoni bilan tutashib turadi. Rayon asosan Sirdaryo, Sangzor hamda Zomin daryolari suvi bilan taminlanadi. Bu yerning aholisi asosan boshqa yerlardan ko'chib kelganlar. Aholining 45 % dan ortig'i shaharda istiqomat qiladi.

Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoni mamlakatda yetishtiriladigan paxta yalpi hosilining 1/4 qismini beradi. Rayonda agrasanoat majmuyi yuksak darajada rivojlangan. Jami ekin maydonining salkam 45% ga paxta, deyarli shuncha maydonga donli ekinlar ekiladi.

3. *Toshkent shahri (IV-soat mintaqasi) da ertalab soat 8:30 bo'lganda, Tokio shahri (IX-soat mintaqasi) da soat necha bo'ladi?*

Javob; $8:30+5=13:30$ J-B 13:30 boladi

17 –bilet

1. *O'zbekiston Respublikasining ko'mir sanoati va milliy iqtisodiyotda ko'mirdan qanday maqsadlarda foydalanilishi haqida gapiring. Xaritadan ko'mir sanoatiga ixtisoslashgan Angren va Sharg'un shaharlarini ko'rsating.*



Javob: Bu sanoat tarkibida bir necha ko'mir koni mavjud. Ulardan ko'mir zaxirasi 2 mlrd tonnani tashkil etadi. Dastlabki ko'mir Angren konida 1950-yillarda qazib olingan. Unda ko'mirning 9/10 qismini ochiq usulda qazib olinmoqda. Sirdaryo viloyatining Sarioasiyo tumanida 1950-yili Sharg'un koni ishga tushirilgan. Kondagi ko'mir yuqori sifatli toshko'mir bolib, shahta usulida qazib olinadi. Angren Sharg'un Boysun konlaridan yiliga 4 mln tonnage yaqin ko'mir qazib chiqariladi. Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko'mirning deyarli hammasi 97.4 % qo'ng'ir ko'mir, qolgan qismi toshko'mirdan. Tabiiy gaz sanoati endigina shakillanayotgan yillarda Angren ko'mir konida yer osti va rogenatorlardan komirni yuqori bosimdagi havo oqimi yordamida gazga aylantiriladigan „Yerostigaz“ stansiyasini ishga tushurgan edi. Hozirda undan unumli foydalanib, uning bir qismi yer ostida gazga aylantirilmoqda .

2. *Buxoro viloyatining tabiiy boyliklari, sanoati va qishloq xo'jaligi haqida*

gapiring. Xaritadan neftni qayta ishlash zavodi joylashgan viloyatdagi shaharni ko'rsating.

Javob; Sanoati ko'p tarmoqlidir. Bu yerda energetika rangli metallurgiya neftni qayta ishlash, Gaz kimyo, yengil va oziq ovqat sanoari rivojlangan. Neft sanoati rivojlangan. Qorovulbozor shahrida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan korxonalar ishga tushdi. Rayonda iqtisodiyotning yangi iqtisodiy sohasini vujudga keltirmoqda. Elektr energiya miqdoriga ko'ra Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayonidan keyin 3-o'ringa turadi. Elektr quvvati asosan IES dan olinmoqda. Yengil sanoatning 50 ga yaqin korxonasi bo'lib yalpi mahsulotning 40 % ni ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligida chorvachilik bilan shug'ullaniladi. Qorako'l qoylari boqiladi.

3. Quyidagi nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlang:



Javob: D nuqta-35 sh.k, 65.g .u N nuqta – 15 j.k, 135 sh.u
18 – bilet

1. O'zbekistonda quruqlik transportining rivojlanishi haqida gapiring. Mustaqillik yillarida respublikamizda qanday temir yo'llar qurilgan? Xaritadan "Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'lini ko'rsating, uning ahamiyatini tushuntiring.

Javob; Temiryo'l transport iqlimiy sharoitlar, va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramasdan hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta yuk tashish tannarxi nisbatan past. Hozirgi vaqtda yurtimizda Temir yo'llarning uzunligi 6 ming km. Mamlakatimizdagi barcha temir yo'llar tekisliklardan daryo vodiylardan o'tadi. Jizzax-Samarqand temir yo'li dengiz sathidan 850 metr balandlikda o'tadi. Mamlakatimizdagi eng yirik transport tuguni Toshkent temiryo'l stansiyasi xalqaro ahamiyatga ega. Undan to'rt tomonga yo'lar ketgan. O'zbekiston g'arbiy rayonlarning Rossiya, Ukraina, Belarus davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish maqsadida Qo'ng'irov-Beynov temiryo'li qurildi. Avtomobil transporti yularni bevosita iste'mochilarga yetkazib beradi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magisterial transport bilan bog'laydi. Shaharlardagi va shahar atrofidagi hududlardagi yuklarning asosiy qismini tashiydi. 1940-yillarda qurilgan Toshkent, Sirdaryo Jizzax Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari orqali o'tadigan

Katta O'zbek trakti muhim ahamiyatga ega. Uning uzunligi 700 km.

2. Xorazm viloyati geografik o'rni va xo'jaligiga tavsif bering. Viloyat xo'jaligining ixtisoslashuviga uning tabiiy sharoiti va resurslari qanday ta'sir ko'rsatgan?

Javob; Xorazm viloyati esa kichik viloyatlardan biri soni boyicha ham viloyatlar orasida oxirgi o'rinlarda. Xo'jaligi asosan agrosanoat majmuidan iborat. Asosiy tarmoqlari: paxtachilik, polizchilik, sholichilik, pillachilik. Xiva yangiariq Shovot tumanlarida paxta yetishtirilsa, Gurlanda Sholi poyalar katta hududni egallaydi. Paxtadan tashqari obikor yerlarda makkajo'xori kartoshka va poliz ekinlari ekiladi. Viloyaning barcha tumanlarida poliz ekinlari ekiladi. Qovunchilik ham rivjlangan. Chorvachilikda Qorako'l qoylarining salmog'i katta.

3. Quyidagi nomli masshtablarni sonli masshtablarga aylantiring. a) 1 sm da 30 km; b) 1 sm da 5 km; c) 1 sm da 250 m.

Javob: A) 1 sm da 30 km - 1:3000000 m ; B) 1 sm da 5 km - 1:500000 m ; C) 1 sm da 250 m - 1:25000 m

19 – bilet

1. Milliy iqtisodiyotimiz tarkibida qanday tarmoqlar mavjud? Ularni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlariga ajrating.

Javob; Moddiy ishlab chiqarish sohalari:

1. sanoat- a) og'ir sanoat-yoqilg'i: elektroenergetika, qora metallurgiya; rangli metallurgiya; mashinasozlik.

Moddiy nemat ishlab chiqarmaydigan soha: 2. ta'lim sog'liqni

saqlash, sport, sanat, uy-joy xo'jaligi dam olish maskanlar; b) Yengil sanoat;

A) dehqonchilik - G'allachilik; Paxtachilik;

B) chorvachilik va qo'ychilik 3) Transport – quruvchilik, suv, yo'llari, havo.

2. Qoraqalpog'iston va Surxondaryo viloyatlariga qiyosiy geografik tavsif bering. Ushbu hududlarning o'zaro farqlarini keltirib chiqargan tabiiy omillar nima? Hududlar va ularning markazlarini xaritadan ko'rsating.

Javob: Qoraqalpog'iston - maydoni – 166.8 ming km²; aholisi - 1.9 mln kishi Mamuriy bonishi - 14 tuman; Qoraqalpog'iston mamlakatimizning shimoli g'arbida joylashgan.

Surxondaryo - maydoni - 20.1 ming km²; aholisi - 2.3 mln kishi Mamuriy bonishi - 13 tuman.

3. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra bir sutka davomida ob-havo quyidagicha o'zgargan bo'lsa, sutka ichidagi o'rtacha haroratni aniqlang: -60C, -90C, -30C, +20C, +80C, +30C, 00C, -30C.

Javob: $-6 + (-9) + (12^{\circ}\text{C}) + (14^{\circ}\text{C}) + 4^{\circ}\text{C} + 6^{\circ}\text{C} + (-6^{\circ}\text{C}) + (-8^{\circ}\text{C}) = 65$;

$65:8 = 8.125$ O'rtacha harorat 8.125

20 – bilet

1. Quyidagi geografik atamalarning mazmunini izohlang: magistral, tashqi iqtisodiy aloqalar, hududiy mehnat taqsimoti.

Tashqi iqtisodiy aloqalar-mamlakatlarning o'zaro savd-sotig'i. Chet mamlakatlardan zarur mahsulotlarni, mollarni olib kelish *import* deb ataladi. Aksincha, tovarlarni tashqi bozorga, xorijga chiqarilishi *eksport* deb ataladi. *Magistral* (lotincha *magistralis* -asosiy) -asosiy yo'nalish, asosiy aloqa yo'li. Trans Osiyo magistrali (Istanbul-Toshkent-Oлмаota-Pekin) qurilishida ishtirok etmoqda. «Drujba» stansiyasi (Qozog'iston), Turkmanistonda Tajan--Saraxs va Eronda Saraxs--Mashhad qismlari qurib foydalanishga topshirildi (1996-yil) va yo'lda poyezdlar qatnovi boshlandi. Aynan 133 km li Tajan--Saraxs yo'lini qurishda o'zbekistonlik quruvchilarning hissasi katta bo'ldi.

Mamlakatning ayrim qismlari o'rtasida mehnatning ana shunday taqsimlanishi geografik yoki *hududiy mehnat taqsimoti* deyiladi.

2. *Farg'ona iqtisodiy geografik rayoniga quyidagi reja asosida ta'rif bering.*

a) *geografik o'rni (xarita yordamida); b) aholisi; c) qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari; d) sanoatining asosiy tarmoqlari; e) eng yirik shaharlari.*

A) mamuriy jihatdan Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlaridan iborat. Respublika hududining 4 % ni egallaydi unda O'zbekiston aholisining 1/3 qismi yashaydi. Tog'lar bilan o'raglan; B) Rayon aholisi soni, zichligi va ishchi kuchlarining salmog'i jihatdan mamlakatimiz iqtisodiy geografik rayonlari orasida 1-o'rinda turadi. Aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda. Urbanizatsiya yuqori, aholining 58 % shaharlarda yashaydi; C) Rayon mamlakatda yetishtiriladigan paxtaning 25 % ini beradi. Tog' yonbag'irlarda texnikadan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun mevali daraxtlar ekiladi. Chorvachilik ham rivojlangan. Pilla 45 % ni beradi; D) Rayon yoqilg'i-energetika majmuyining o'z boyluklar salmog'i kichik. Gaz Buxorodan keltiriladi. Quvasoy IES, Namangan, Farg'ona, Andijon IEM lari bor. Bu erda quvvati 900 megavolt bo'lgan To'raqo'rg'on IES I qurish rejalashtirilmoqda. Farg'ona HICHMda qurilish materiallari sanoati ham rivojlangan; E) Yirik shaharlari: Andijon, Asaka, Qo'qon, Farg'ona, Namangan.

3. *Havo harorati +30 C bo'lganda, nisbiy namlik 60% ga teng bo'lsa, havodagi namlik miqdorini toping?*

Javob: Nisbiy namlik 100% bo'lganda 30gramm suv bug'i bo'ladi.

$$30\text{g}/\text{m}^3 - 100\% \quad X = (30 \cdot 60) : 100\% = 18 \text{g}/\text{m}^3$$

$$x \text{g}/\text{m}^3 - 60\%$$

21 – bilet

1. *O'zbekiston kimyo sanoati qanday mahsulotlarni ishlab chiqaradi?*

Respublikamizdagi yirik kimyo korxonalari joylashgan shaharlar (Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Farg'ona, Qo'ng'iro't)ni xaritadan ko'rsating.

Javob: Kimyo sanoati xomashyo bazasi boy va xilma xil. U turli foydali qazilma ishlab chiqarish, chiqindilardan yog'och suv hatto havodan foydalanadi. Turli xil xomashyolardan sanoat korxonalari hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo korxonalari energiya va suvni ko'p ishlatishi ayniqsa Jiddit tasir ko'rsatadi. Kimyo sanoati tarmoqlararo 2 tomonlama aloqadorlikda bo'lib ko'plab tarmoqlar rivojlanish va hududiy joylashishga tasir korsatadi.

2. Samarqand viloyatining geografik o'rni, tabiiy boyliklari va xo'jaligining ixtisoslashuvi haqida gapiring. Xaritadan Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut shaharlarini ko'rsating.

Javob: Samarqand iqtisodi geografik rayoni hududida aholi qadimdan obikor dehqonchilik bilan shug'ullanib kelmoqda. Dehqonchilik bilan birga savdo va hunarmanchilik ham taraqqiy etgan. Temiryo'l qurulgach Samarqand iqtisodi geografik rayoni emas balki butun o'rta osiyoning xo'jaligi rivojlandi. Rayonning agrasanoat majmui barcha iqtisodi geografik rayonlardagi kabi rivojlangan. Samarqand hududiy ishlab chiqarish majmuida qishloq xo'jaligi aloxida o'rinda. Dehqonchilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining 75 % ini beradi.

3. Dunyo okeanidagi suvi eng sho'r dengiz Qizil dengiz hisoblanadi (42 g/l). Bu dengizning 4 tonna suvidan qancha tuz olish mumkin?

Javob: $42 \cdot 4 = 168g$

22 – bilet

1. Quyidagi geografik atamalarning ma'nosini tushuntiring: urbanizatsiya, aholining tabiiy ko'payishi, rekreatsiya.

Rekreatsiya - dam olish sayohat, hordiq chiqarish, Sanotoriya.

Urbanizatsiya - shaharlashish, mamlakat aholisi ulushida shahar va shahar aholisining ortishi. Aholining tabiiy ko'payishi - aholi orasida o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqigidan hosil bo'ladi.

2. Navoiy viloyati sanoat va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarini ayting.

Viloyat tabiiy sharoiti va resurslari xo'jaligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Xaritadan viloyatdagi rangli metallurgiya va qurilish materisllari sanoati markazlari (Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, G'azg'on) ni ko'rsating.

Javob: Xo'jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, qorako'chilik va qo'ychilik. Cho'l chorvachiligi sohasida bu viloyat mamlakat ichida yetakchidir. Qizilqum cho'lida qorako'chilikka ixtisoslashgan yirik xo'jaliklar tashkil etilgan. Bu sohada Tomdi tumani alohida ajralib turadi, tumanda 10 ta qorako'chilik xo'jaligi bor. Dehqonchilik janubda rivojlangan.

3. Shaharda 1 yil mobaynida tug'ilish 800 kishi, o'lim 300 kishi, ko'chib ketganlar soni 1200 kishi, ko'chib kelganlar soni esa 600 kishini tashkil etgan bo'lsa, shahar

aholisi qanchaga o'zgarganini hisoblab chiqing.

Javob: $800-300=500$ kishi ; $1200-600=600$ kishi; $600-500=100$ kishi

Javob:100 kishi

23 – bilet

1.Iqtisodiy geografik o'rin tushunchisini izohlab bering. Respublikamizning iqtisodiy geografik o'rniga qanday xususiyatlar xos?

Javob: Har qanday davlatning rivojlanishini xalqaro iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar miqyosi esa xalqaro mehnat taqsimoti, qolaversa, iqtisodiy geografik o'rin imkoniyatlariga bog'liq. Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida yirik xalqaro savdo yo'llari muhim omil bo'lgan. miloddan avvalgi II asrdan to XVI asrgacha Sharqni (Hindiston, Xitoy) G'arb (Yevropa mamlakatlari) bilan bog'lab turgan asosiy savdo yo'li -- «Buyuk ipak yo'li» O'rta Osiyo orqali o'tgan. XIX asr oxirlarida O'rta Osiyoda temiryo'l qurildi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan erkin aloqa o'rnatish huquqini qo'lga kiritdi. Tarixan qisqa vaqtda uni azaliy janubiy qo'shnilari Afg'oniston, Pokiston, Eron hamda g'arbdan Turkiya va sharqdan Xitoy bilan bog'lovchi quruqlik hamda havo yo'llari ochildi.

2.Qashqadaryo viloyatiga umumiy geografik tavsif bering.Viloyatning tabiiy sharoiti va resurslari sanoati va qishloq xo'jaligiga ta'sirini izohlang.

Xaritadan Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Muborak shaharlarini ko'rsating.

Javob:Qashqadaryo -Maydoni -28.6 kv.km;Aholisi -2.8 mln kishi ;Mamuriy bo'linishi -13 tuman.Qashqadaryo-mamlakat neft-gaz sanoatining tayanchi hisoblanadi.Qarshi cholining janubiy g'arbiy qismida vodorod sulfiddan gaz ajralib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan.Qashqadaryoda 150 ga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.Ularning asosiysi Neft va gaz paxta tozalash binokorlik yengil hamda oziq ovqat sanoatiga iqtisoslashgan.

3. Sangzorga qishda 168 mm, bahorda 174 mm, yozda 15 mm, kuzda esa 67 mm yog'in tushganligi ma'lum. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, Sangzordagi yillik yog'in miqdorini aniqlang.

Javob; $168+174+15+67=424$ mm

24 – bilet

1.Aholiga xizmat ko'rsatish sohaslariga qanday tarmoqlar kiradi? O'zbekistondagi eng yirik sayyohlik markazlarini xaritadan ko'rsating.

Javob:Axborotlarni tarqatish,mamlakat iqtisodiyotni boshqarishda,aloqa xizmati muhim o'rin tutadi.2 xil bo'ladi.1.Po`chta aloqasi turli pochta jonatmalarni qabul qilish jonatish yetkazib berishni o`z ichiga oladi.2.Elektron aloqa bo`lib u telefon; radio; electron pochta kabilarni o`z ichiga oladi.Xizmat ko`rsatish sohalari ichida matbachilik dastlabki bosmaxona.XV asr o`rtalarida Germaniyada tashkil qilingan 1-bosmaxona XIX asr oxirida ishga tushiriladi. Hozirda yurtimizda 120 dan ortiq bosmaxona mavjud.

2. *Toshkent iqtisodiy geografik rayonining geografik o'ri, tabiiy resurslari va aholisi joylashuvi haqida gapiring.*

Javob: Toshkent iqtisodiy rayonini rayoni mamuriy jihatdan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat. Bu rayonnin ikki tamoni Farg'ona va Mirzacho'l bilan qolga ikki tomoni esa Qozog'iston va Tojikiston davrlari bilan chegaradosh. Toshkent iqtisodiy geografik rayoni konchilik sanoati rivojlangan. Toshkent iqtisodiy geografik rayoni ko'p tarmoqli bo'lib unda o'zbekiston sanoat tarmog'ining deyarli hammasi mavjud. Yengil va oziq ovqat sanoati ham rivojlangan. Yoqilg'i-energetika-kimyoy majmui ancha qudratli. Toshkent-1930-yildan buyon yurtimizning poytaxti. Rayonning Chirchiq va Ohangaron vodiylari Sirdaryoga qadar 100-150 km dan ortiq masofada pasayib borishi sababli suniy sug'orish qulay. Mamlakatimiz aholisining deyarli 1/5 qismi shu rayonda yashaydi. Rayonda shahar aholisining salmog'i Toshkent shahri aholisini qo'sh maydonda 50% ga boradi. Umumiy aholi sonidagi mehnatga yaroqlilar salmog'i bo'yicha iqtisodiy geografik rayon 1-o'rinda.

3. Xaritada raqamlar bilan Afrika materigining qaysi ob'ektlari ko'rsatilgan?



Javob: 1 nuqta-Ben-sekka nuqtasi; 2-nuqta- Nil daryosi; 3-nuqta Viktoriya ko'li; 4-nuqta Kongo daryosi; 5-nuqta Madagaskar oroli.

25 – bilet

1. *O'zbekistonda gidroenergetikaning rivojlanishi haqida gapiring. Gidroenergetik kaskad deb nimaga aytiladi? GESlar qurilgan Chorvoq, Tuyamo'yin va Andijon suv omborlarini xaritadan ko'rsating.*

Javob: Miiliy iqtisodiyotni o'stirish uchun elektr energiya ishlab chiqarishni boshqa tarmoqlarga qaraganda, tezroq o'stirish lozim. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyani 90% IESlar beradi. O'zbekistonda Toshkent, Yangi angren, Sirdaryo, Navoiy Talimarjon kabi IESlari mavjud. IES tez va arzon quri-

ladi. Sirdaryo IES ning o`zi yiliga 13 mlrd kv.soat elektr energiya beradi. Ko`pchilik IES lar elektr energiya bilan bir vaqtda issiqlik energiyasini ishlab chiqaradi.
 2. *Andijon va Buxoro viloyatlariga qiyosiy geografik tavsif bering. Bu hududlarning tabiiy sharoitidagi farqi va uning viloyatlar ixtisoslashuviga ta'siri haqida aytib bering.*

Javob: Andijon viloyati mamlakatimizning eng sharqiy viloyati. Xo`jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik sabzavotchilik bog`dorchilik uzumchilik, go`sht-sut chorvachiligi, ipakchilik. Qishloq xo`jaligi rivojlangan. O`zlashtiriladigan yerlar deyarli qolmagan. Paxtaning yalpi xosili faqat hosildorlikni ko`tarish hisobiga oshirimoqda. Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlar asosan shaharlar atrofida yetishtiriladi. Bog`dorchilik salmoqli o`rin tutadi. Iqtisoslashgan bog`dorchilik xo`jaliklari bor. Chorvachilikda qo`y va echkilarning salmog`i katta. Viloyatda sanoat ham rivojlangan bolib 160 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Korxonalar orasida <ASAKA> avtomobil zavodi, Andijon avtomobil orindiqlari zavodi, <semurg > trikotaj aksiyadorlik birlashmasi yirik korxonalar hisoblanadi. Kampiravot suv omborida quvvati 100 ming kilovotli GES qurilgan. *Buxoro.* Sanoati ko`p tarmoqlidir. Bu yerda energetika rangli metallurgiya neftni qayta ishlash, Gaz kimyo, yengil va oziq ovqat sanoari rivojlangan. Neft sanoati rivojlangan. Qorovulbozor shahrida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan korxonalar ishga tushdi. Rayonda iqtisodiyotning yangi iqtisodiy sohasini vujudga keltirmoqda. Elektr energiya miqdoriga ko`ra Toshkent va Mirzacho`l iqtisodiy geografik rayonidan keyin 3-o`rinda turadi. Elektr quvvati asosan IES dan olinmoqda. Yengil sanoatning 50 ga yaqin korxonasi bolib yalpi mahsulotning 40 % ni ishlab chiqaradi. Qishloq xo`jaligida chorvachilik bilan shug`ullaniladi. Qorako`l qo`ylari boqiladi.

3. *1.01.2017 yil holatiga Andijon viloyati (hududi 4,3 ming km², aholisi 3 mln. kishi) va Sirdaryo viloyati (hududi 4,3 ming km², aholisi 800 ming kishi) ning aholi zichligini aniqlang va ularni taqqoslang.*

Javob: Andijon - $900:4.3=21$ 1 kv.km ga 21 kishi ;

Sirdaryo - $800:4.3=19$ 1 kv.km ga 19 kishi .

26 –bilet


1. *Mashinasozlik majmuasining tarmoqlarini sanab bering. Xaritadan O`zbekistondagi avtomobil zavodlari joylashgan shaharlar (Asaka, Samarqand)ni ko`rsating.*

Javob: Iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va asboblarni ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste`mol buyumlari bilan taminlovchi sanoat tarmoqlari uyg`unligi mashinasozlik majmuyi deyiladi. Mashinasozlik majmuasi iqtisodiyotning ustuvor majmuasi hisoblanadi. Mashinasozlik majmuasi tarmoqlari: Metallurgiya mashinasozligi; Qishloq xo`jaligi ma-

shinasozligi;Avtomobilsozlik;Samolyotsozlik;Yo'l qurilish mashinasozligi; Temiryo'l mashinasozligi; Stanoksozlik;Elektrotexnika. Energetika mashinasozligi

2. *Toshkent viloyatining xo'jaligi haqida gapiring. Viloyatning geografik o'rni va tabiiy resurslari xo'jaligining ixtisoslashuviga ko'rsatgan ta'sirini tushuntiring.* Toshkent iqtisodiy geografik rayoni bir tomondan Farg'ona vodiysi va Mirzacho'lga tutashsa, ikkinchi tomondan mamlakatning xorijga chiqadigan asosiy «darvoza» sidir. Geografik o'rnidagi qulaylik tufayli Toshkent 1930-yildan beri O'zbekistonning poytaxti maqomida kelmoqda. Toshkent viloyati qishloq tumanlarining deyarli yarmining (Yangiyo'l, Qibray, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron, Zangiota va Toshkent tumanlari) xo'jaligi ixtisoslashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida poytaxtning ta'siri ustuvor hisoblanadi. Sanoatining asosiy tarmoqlari: Qora va rangli metallurgiya, elektroenergetika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, qurilish materiallari, yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat.

3. *Xaritada belgilangan nuqtalarning qaysi birida yanvarning o'rtacha havo harorati eng past, qaysi birida esa eng baland?*



Javob: A-eng past;B-eng yuqori .

27- bilet

1. *O'zbekistonda chorvachilikning qaysi tarmoqlari rivojlangan? Chorvachilikning hududiy xususiyatlariga tabiiy sharoiti qanday ta'sir ko'rsatadi?*

Javob;Chorvachilik tarmog'i:qoramolchilik,qo'ychilik,pillachilik,yilqichilik va parrandachilikga bo'linadi.Unga asalarichilik cho'chqachilik va baliqchilik ham kiradi.Qishloq xo'jaligi yerlarining 2/3 qismidan chorvachilikda foydalaniladi.Mamlakatimizning dash va cho'llardagi o'tloqlar va butazorlar qorako'l qo'ylari boqish uchun qulay.Tog' va tog'oldi mintaqalarda yaylovlar ko'p.Bu mintaqalarda qo'y,mayin junli echki,gosht-suv uchun Qoramol boqiladi.Yilqichilik rivojlangan.

2.*Farg'ona viloyatining geografik o'rni,tabiiy resurslari,sanoat va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi haqida gapiring.Xaritadan Qo'qon,Marg'ilon, Quvasoy, Rishton shaharlarini ko'rsating.*

Viloyatga vodiyning tekislik qismi, Oloy va Turkiston tizmalarining tog'oldilari kiradi. Viloyatda Andijon viloyatiga nisbatan qish biroz sovuq, yozi issiq va

quruq, g'arbida yog'in miqdori yil davomida 100 mm dan oshmaydi, tez-tez garmisel esib turadi. Isfayram, Shohimardon, So'x, Isfara daryolarining dehqonchilikda ahamiyati katta. Norin bilan Qoradaryodan bir necha sug'oruv kanallari chiqarilgan. Viloyat yalpi sanoat mahsulotiga ko'ra mamlakatimizda faqat Toshkent viloyatidan, aholi soni jihatidan esa Samarqand viloyatidan keyinda turadi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: Donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, pillachilik. Sanoatining asosiy tarmoqlari: Yoqilg'i (neftni qayta ishlash), yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat, unyorma.

3. *Samolyot 6 km balandlikda uchib bormokda. Yer yuzasida harorat +24C bo'lsa, samolyot uchib borayotgan balandlikdagi haroratni aniqlang.*

Javob: $6 \cdot 0.6 = 3.6$; $36 - 24 = 12^{\circ}\text{C}$

28-bilet

1. *O'zbekistonda qora va rangli metallurgiya rivojlanishi haqida gapiring. Ushbu tarmoqlarning yirik markazlar (Bekobod, Olmaliq, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq) ni xaritadan ko'rsating.*

Javob: Metallurgiya majmuasi 2 tarmoqqa bolinadi. 1-Qora metallurgiya 2-Rangli metallurgiya. Qora Metallurgiya; temir rudasi qazib chiqarish, cho'yan, po'lat eritishdan iborat. Fan va texnika taraqqiyoti metal eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metal olishning yangi senurum usullarini joriy qilishga olib kelmoqda, bu po'lat sifatini oshirishni va prokatning xilma xil turlarini olishni taminlamoqda. Qora metallurgiyada ishlab chiqarish uzliksiz markazlasha boradi. Bunda suv, elektr energiya tabiiy gaz bilan taminlash va tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlari ham etiborga olinadi. Qora metallurgiya korxonasi-BEKOBOD. Rangli metallar bir qancha guruhlariga bo'linadi. Bu bo'linish asosida rangli metallurgiya – o'g'ir metallar metallurgiyasi, yengil metallar metallurgiyasi va boshqalarga bo'linadi. Angren-Olmaliq kon rayoni mamlakatimiz rangli metallurgiya sanoatida alohida ahamiyatga ega. Volfram va molibden ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Rangli metallar qimmatli hususiyatlarga ega. Ular zanglashka chidamli issiqqa bardoshli bo'ladi. Qimmatbaho metallar-Oltin kumush platina. Mamlakatimizda oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram va boshqa rangli metallar rudalari zaxirasi ko'p.

2. *Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoniga quyidagi reja asosida ta'rif bering. a) geografik o'rni (xarita yordamida); b) aholisi; c) qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari; d) sanoatining asosiy tarmoqlari; e) eng katta shaharlari.*

Javob: a) Sirdaryo va jizzax viloyatlaridan iborat. Rayon Toshkent va Samarqand iqtisodiy geografik rayoniga tutashib turadi. Rayon asosan Sirdaryo, Sangzor va Zomin daryolari suv bilan taminlaydi. b) Bu yerning aholisi reja asosida boshqa yerlardan ko'chirib keltirilgan. Rayon aholisining soni

bo'yicha 1 iqtisodiy geografik rayonlar orasida eng oxirgi o'rinda. Aholining 45 % dan ortig'i shaharlarda yashaydi. c) Mamlakatda yetishtiriladigan paxta yalpi hosilining j foizini beradi. Rayonda agrosanoat majmuyi yuksak darajada rivojlangan. Jami ekin maydonining 45% ga paxta yana shunday qismiga donli ekinlar ekiladi; e) Guliston Jizzax

3. 5000 m balandlikka ko'tarilgan alpinistlarning barometri 250 mm simob ustunini ko'rsatgan bo'lsa, shu vaqtda tog' etagidagi havo bosimi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: $5000:10=500$; $500+250=750\text{mm}$.

29- bilet

1. O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati haqida gapiring. U qanday mahsulotlarni ishlab chiqaradi? Qaysi shaharlarda sement zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda? Ularni xaritadan ko'rsating. Xaritadan G'azg'on shaharchasini ko'rsating va u nima bilan mashhurligini tushuntiring.


Javob: Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan aloqador. Zavod va fabrikalar, uy joylar yo'llar hamda irrigatsiya inshootlari-ning ko'plab barpo etilishi bilan qurilishbop materiallarga talab ham ortib boraveradi. Sement Quvasoy, Ohangaron, Angren, Navoiy va Bekobod shaharlarida ishlab chiqarilmoqda. O'zbekiston chiroyli va pishiq marmarga boy. Yurtimizda topilgan 4 ta marmar zavodining 5 tasidan marmar qazib olinmoqda.

2. Samarqand iqtisodiy geografik rayoniga quyidagi reja asosida ta'rif bering. a) geografik o'rni (xarita yordamida); b) aholisi; c) qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari; d) sanoatining asosiy tarmoqlari; e) eng katta shaharlari.

Javob: a) Rayon O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib Samarqand viloyati hududidan iborat. Tabiiy geografik o'rniga ko'ra zarafshon vodiysining o'rta qismiga to'g'ri keladi. 3 Tomondan Nurota Turkiston va Zarafshon tizma tog'lar bilan oralgan. b) Rayon aholisining 3/5 qismi qishloqda yashaydi. Inson faoliyati uchun eng qulay zarafshon vodiysi aholi nihoyatda zich yashaydi. Bu yerlarda har bir kv.km ga 250 va undan ortiq kishi to'g'ri keladi. c) Samarqand iqtisodiy geografik rayoni hududida aholi qadimdan obikor dehqonchilik bilan shug'ullanib kelmoqda. Dehqonchilik bilan birga savdo va hunarmanchilik ham taraqqiy etgan. Temiryo'l qurulgach Samarqand iqtisodiy geografik rayoni emas balki butun o'rta osiyoning xo'jaligi rivojlandi. Rayonning agrasanoat majmui barcha iqtisodiy geografik rayonlardaki kabi rivojlangan. Samarqand hududiy ishlab chiqarish majmuida qishloq xo'jaligi aloxida o'rinda. Dehqonchilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining 75 % ini beradi. d) Sanoatning asosiy tarmoqlari: rangli metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq ovqat sanoati. e) Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut.

3. Xaritada belgilangan nuqtalarning qaysi birida 22 dekabr kuni Quyosh eng yuqori balandlikda turadi?

Javob: D nuqta



30-bilet

1. Yengil sanoati mahsulotlari va uning tarmoqlari haqida gapiring. Uning rivojlanishi va joylashtirilishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

Javob: Yengil sanoat: paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, charm, konchilik, ipak, ishlab chiqarish. Yengil sanoat asosan pillachilik va paxtachilik negizida tarkib togan.

2. Quyi Amudaryo iqtisodiy geografik rayonining iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari hamda ixtisoslashuvi haqida so'zlab bering. Xaritadan Nukus, Urganch, Xiva, Q'ong'iroq va Mo'ynoq shaharlarini ko'rsating.

Javob: Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayoni O'zbekistonning shimoli g'arbida joylashgan. Bu rayon Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan iborat. Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayonining obkor yerlari qadimdan aholi zich yashab kelgan vohalardandir. Xorazmda qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelingan. Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayon xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Yaroqli yerlarning 90% yaylovlardan iborat. Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayon sanoati yengil va oziq ovqat sanoati tarkibidan iborat. Yengil sanoatda paxta tozalash zavodlarining salmog'i katta.

3. Sirdaryo viloyatining O'zbekiston aholisidagi ulushi 2,5%, paxta yetishtirishdagi hissasi esa 3,5%. Paxtachilik viloyat uchun ixtisoslashgan tarmoq bo'la oladimi? Javobingizni asoslang.

Javob: ; M-rayon mahsulotining mazkur tarmoq boyicha mamlakatdagi salmog'i; A-mamlakat aholisi sonidan rayon aholisining salmog'I;

K-Ixtisoslashuv koeffitsiyenti;

$K = M:A = 3.5:2.5 = 1.4$

1 dan kattaligi uchun ixtisoslashgan tarmoq bo'la oladi.

**XATO VA KAMCHILIKLAR BO'LSA UZR
SO'RAYMIZ**

Bizning rasmiy sayt: maktabim.uz
Hamkor sayt: azamat.moy.su
Telegram manzilimiz: [@maktabimiz](https://t.me/maktabimiz)
Telegram botimiz: [@imtixonbot](https://t.me/imtixonbot)
Admin bilan aloqa: [@ziyokor](https://t.me/ziyokor)

@maktabimiz